

NATURANING O'ZIGA QARAB RASM CHIZISHDA BUYUMLARNING O'ZARO NISBATLARINI TO'G'RI TOPISH QOIDALARI

Oltmishev Toxir Turg'unovich

*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi
o'qituvchisi, Jizzax, O'zbekiston
e-mail:daddy111266@gmail.com*

Annotasiya. *Naturadan rasm chizish metodini fanga Kulman, Prang va Baumgart kabi olimlar olib kirishgan. Shu asnoda realistik tasvirlash usuli vujudga kelgan va xanuzgacha rivojlanib kelmoqda. Naturaning o'ziga qarab rasm chizish masg'ulotlarida yana bir muxim qoidalaridan biri buyumlarning o'zaro nisbatlaridir. Naturadan rasm chizishda o'lchamasdan ko'z chamasi yordamida ham chizish mumkin, ko'z chamasi bilan malakali, ko'p yillik tajribaga ega rassomlar chizadilar. Ular muntazzam ravishda qoramalar, xomaki rasmlar chizish natijasida mashaqqatli mehnatlari orqali ko'z bilan chamalab chizish malakasiga erishganlar.*

Kalit so'zlar: *Natura, perspektiva, qoralama, ko'z chama, o'lcham, rasm.*

Annotation. *The method of drawing from nature was introduced to science by scientists such as Kulman, Prang and Baumgart. At the same time, the method of realistic depiction has emerged and is still evolving. Another important rule in nature-based drawing lessons is the proportions of the objects. It is also possible to draw from nature with the help of eyeballs without measuring, with the help of eye-catching artists with many years of experience. achieved.*

Key words: *Nature, perspective, draft, eye view, size, picture.*

Rasm chizishga o'rgatishda "Naturadan rasm chizish metodini" fanga Kulman, Prang va Baumgart kabi olimlar olib kirishgan. Shu asnoda realistik tasvirlash usuli vujudga kelgan va xanuzgacha rivojlanib kelmoqda. Naturaning o'ziga qarab rasm chizish masg'ulotlarida yana bir muxim qoidalaridan biri buyumlarning o'zaro nisbatlaridir. Naturadan rasm chizishda o'lchamasdan ko'z chamasi yordamida ham chizish mumkin, chamalab ko'z chamasi bilan malakali, ko'p yillik tajribaga ega rassomlar chizadilar. Ular muntazzam

ravishda qoralamalar,xomaki rasmiar chizish natijasida mashaqqatli mehnatlari orqali ko'z bilan chamalab chizish malakasiga erishganlar. Aagar ko'z chamasi bilan chamalab ko'raolmasangiz zarari yo'q unda qalam yordamida o'lcham qo'yiladi. O'lchash uchun stulga suyanib o'tirib qo'lni to'g'riga tirsaklarni bukmagan xolda uzatamiz va qalamni uchini chizilazyotgan buyum eng baland nuqtasiga to'g'rilab, pasti nuqtasiga esa qalamni barmoq bilan belgilaymiz (1-rasm , 2-rasm) Shu tariqa o'lcham olinadi. Xuddi shu usul bilan tasvirlanayotgan buyum yoki natyurmortdagi barcha jismlar o'lchami olinadi (3-rasm).



1-rasm



2-rasm.




3-rasm.

Tirik odam boshi rasmini chizish

Talaba gips bo'laklari rasmini chizishdan tirik odam boshi rasmini chizishga o'tar ekan, o'z ishida juda ko'p qiyinchilik va murakkabliklarga duch keladi. Bu qiyinchilik va murakkabliklar shundan iboratki, talaba avval chizgan ganch modeli doimiy, muqim holatda turgan; boshning yoritilishi, soya, yarim soya va tushayotgan soya va tus berish kuchi rasm chizishning hamma seanslari davomida o'zgarmay turgan. Tirik bosh esa doim harakatda bo'ladi: qiyofachi qimirlab ketsa, soya va yarim soyalar xarakteri o'zgaradi. Undan tashqari tirik bosh tasviri bilan ganch boshni tasvirlashni taqqoslashdagi asosiy murakkablik shundan iboratki, bu o'rinda rasm chizuvchi ko'p narsani o'zi mustaqil hal qilishga, o'z idroki va ijodiy qobiliyatini faollashtirishga majbur boiadi. Gips


namunalarda talaba shaklni umumiy ko'rgan. Ushbu haykal namunasini yaratgan buyuk usta ikir-chikir, mayda-chuydalami chetga chiqarib tashlab, e'tiborini asosiy narsaga qaratgan [1,172].



4-rasm.



5-rasm.



6-rasm.

Inson portretini tasvirlash o'ta murakkab vazifa xisoblanadi murakkabligi shundaki biz tasvirlaga rasm asl qiyofachining o'ziga aynan o'xshata olishimizdadir. Xar bir ishda o'lcham xisob – kitob bo'lganidek portret ishlashda ham yuqorida takidlaganimizdek o'lchamlarga e'tibor qaratishimiz kerak bo'ladi. O'lchamlarni to'g'ri olish esa 3,4,5-rasmlarda ko'rsatilgan.

Insonning ichki ruxiy olami bilan bog'langan holda aniq bir obraz yaratilishi portret san'ati deb yuritiladi. Portretida insonning to'la gavdasi, yarmi

yoki yuz qiyofasining faqat o'zi ham bo'lishi mumkin. Portret yaratish o'ziga hos murakkab jarayon bo'lib, insonning anatomik tuzilishidan tortib ichki ruhiy, ma'naviy, shuningdek, tashqi ko'rinishidagi barcha jihatlarini aks ettirishi bilan san'at darajasidagi asar bo'lishi mumkin. Portretchi rassom odamlarga hos turli harakatlarni his qila bilmog'i, ayniqsa, odamning qiyofasidagi samimiylilik yoki soxta jihatlarni tasvirlay bilish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak [2,9].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. B. Boymetov .Qalamtasvir "Musiqqa" nashriyoti, Toshkent - 2006 yil.
2. Abdirasilov, STolipov N.X. dastgohli akademik qalamtasvir (Oliy o'quv yurtlari bakalavr yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma)
3. Xudoyberdiyev, M. (2021). Umumiy o'rta ta'lim tizimida tasviriy san'at o'quv fanini o'qitishning ahamiyati. *Физико-технологического образование*, (5).
4. Khudoynazarova, O. Oliy pedagogik ta'limda talabalarga inson portretini tasvirlashda plastik anatomiyaning nazariy asoslari.
5. Baymurzayeva, O. S. (2020). Ixtisoslashgan san'at maktablarida o'quvchilarga natyurmortni rangtasvirda ishlashga o'rgatish metodikasi. *Science and Education*, 1(8).